

**AN’ANAVIY KELINLARNING NIKOH-TO’Y MAROSIM KO’YLAKLARI TAVSIFI:
XX ASR - XXI ASR BOSHLARIDA (VISUAL MATERIALLAR ASOSIDA)****Rustamova Gulmira Baxtiyor qizi****Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti
Tarix Fakulteti “Arxeologiya va etnologiya” kafedrası
“Etnografiya, eetnologiya va antropologiya” mutaxassisligi
2-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20018883>****Tadqiqot metodologiyasi va tadqiqot usullari**

Mazkur maqolada tarixiy-madaniy yondashuv asosida o’zbek xalqining an’anaviy kelin to’y liboslarining shakllanishi, tarkibi, estetik va lokal xususiyatlari tadqiq etildi. Tadqiqot metodologiyasi milliy madaniyatning bir qismi xisoblangan nikoh-to’y marosim liboslarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo’lib, unda etnografiya, san’atshunoslik va tarix fanlarining keng qo’llaniladigan uslublar: tarixiy-tahlil, qiyosiy tahlil, vizual tahlil, strukturaviy tahlil va etnografik tahlildan birgalikda foydalanildi.

Tadqiqotda XX asr va XXI asr boshlaridagi kelin liboslari evolyutsiyasi vizual materiallar — arxiv fotosuratları, muzey eksponatlari, kataloglar, XX asrda etnografik olimlarning tadqiqotlarida keltirilgan fotosurat namunalari hamda zamonaviy tasviriy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek aholi bilan olib borilgan suhbatlar davomida yig’ilgan etnografik materiallardan ham keng foydalanildi. Bu esa liboslarning nafaqat tashqi ko’rinishi, balki ularning ijtimoiy, ramziy va estetik mazmunini ham ochib berishga imkon yaratadi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik va qiyosiylik tamoyillariga amal qilinadi. Liboslar tarkibi elementlar bo’yicha (bosh kiyim, ustki kiyim, bezaklar va aksessuarlar) tizimli ravishda o’rganilib, ularning vaqt davomida o’zgarish dinamikasi aniqlanadi.

Kirish

Kelinlar liboslari asrlar davomida shakllanib, o’zbek xalqining urf-odatları, e’tiqodları va estetik qarashlarini aks ettirib kelgan. Ayniqsa, an’anaviy kelin liboslari o’zining ramziy ma’nosi, marosimiy ahamiyati va ijtimoiy mazmuni bilan ajralib turadi. Har bir kiyim qismi — bosh kiyim, ko’ylak va bezaklar — ma’lum bir ma’noni anglatib, kelinni turli salbiy ta’sirlardan himoya qiladi, deb ishonilgan.

An’anaviy kelin liboslari to’y marosimlari, xususan, kelin salom kabi udumlarda muhim o’rin egallagan va bugungi kunda ham o’z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ushbu liboslar avloddan-avlodga o’tib, milliy qadriyatların muhim qismi sifatida davom etib kelmoqda. Hozirgi davrda zamonaviy liboslar keng tarqalgan bo’lsa-da, an’anaviy kelin liboslari o’zining betakrorligi va chuqur mazmuni bilan alohida qadrlanadi hamda ko’pincha zamonaviy elementlar bilan uyg’unlashgan holda qo’llanilmoqda.

Asosiy qism

XX asrda o’zbek an’anaviy kelin-to’y liboslari murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo’lib, ular hududiy xususiyatlar asosida shakllangan. Jumladan, kelin libosi ichki oq ko’ylak, ustki atlas ko’ylak (Toshkent, Farg’ona vodiysi) yoki “katta ko’ylak” (Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand), shuningdek, mursak, chopon yoki kamzul, paranji hamda ro’mol kabi unsurlardan tashkil topgan.

Mazkur tarkibda ichki oq ko’ylak alohida ahamiyatga ega bo’lib, u avvalo fiziologik va gigiyenik vazifani bajargan. Shu bilan birga, u muhim ijtimoiy-ramziy funksiyani ham o’tagan

bo'lib, qizning kelinlik maqomiga o'tishini ifodalovchi va uning “poklik” belgisi sifatida talqin etilgan. Ushbu holat kelin libosining faqat maishiy ehtiyoj bilan cheklanib qolmasdan, balki jamiyatdagi ma'naviy va axloqiy me'yorlarni ifodalovchi muhim madaniy belgilaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Manbalarga ko'ra, XX asr boshlaridan to 1970–1980-yillarga qadar ushbu libos xalq orasida “oq ko'ylak” yoki “baxt ko'ylagi”¹ nomlari bilan keng tarqalgan bo'lib, uning bichimi oddiy, to'g'ri siluetli tunika shaklida bo'lgan². Bu esa kelin liboslarida amaliylik va an'anaviylikning uyg'un holda saqlanganligini namoyon etadi. Ushbu turdagi oq ko'ylaklarga asosan paxtalik matolar ishlatilgan bo'lib, jumladan muslin va kseyka kabi yupqa, havo o'tkazuvchan matolar xalq orasida keng tarqalgan. Boy xonadon vakillari ushbu turdagi oq ko'ylaklar uchun kambrik, batista yoki ipakdan ham foydalanishgan³. Respublikaning janubiy chekka hududlaridagi oddiy oilalarda kelinlar oq ko'ylagi oq bo'z matodan tikilgan⁴ (1-rasm).



1-rasm. Oq ko'ylak tikishda keng foydalaniladigan mato turlari (sun'iy intellekt yordamida ishlangan rasm).

Ushbu oq ko'ylakning matolari kuyov tomondan kelinning uyiga fotixa to'y marosimida “oqlik” sifatida alohida jo'natiladi. Ushbu turdagi odat respublikaning barcha hududlarida mavjud bo'lib, uning ramziy manosi bu kelinning “pokligi” va oila shanini saqlaganligini ko'rsatib turuvchi muhim elementlardan biri xisoblanadi. Bugungi kunda oq rang xursandchilik, baxt va yorug' kunlar timsoli hisoblansa, qadimda oq rangdagi narsalar ikki yoshning kelajakdagi hayotining muvaffaqiyatini ta'minlash yo'lidagi o'ziga xos afsungarlik vazifasini ham bajargan⁵. Xususan ustozimiz Salimov Tursun O'sarovichning Nurotada olib brogan tadqiqotlari davomida fotixa to'yida kelin uchun yuborilgan buyumlar orasida albatta

¹ Этнографические очерки узбекского сельского населения. Москва, 1969. –С. 236

² Зуннунова Г. Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX-начало XXI в.) Ташкент: “Extremum-Press” 2013. –С. 184


³ Зуннунова Г. Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX-начало XXI в.) Ташкент: “Extremum-Press” 2013. –С. 185

⁴ Шаниязов К. Ш. Исмаилов Х. И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конец XIX начало XX в. Ташкент «Фан» 1981 – С. 85

⁵ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Ташкент 2007 –С. 190

bir kiyimlik “oqlik”, bitta katta oq “baxt” ro‘moli bo‘lishi shart ekanini kuzatgan⁶. Oq ko‘ylakning yana bir o‘ziga xos sifati shundaki, u kelinning ilk ayollik libosi sifatida birinchi bo‘lib bichiladi va tikiladi. Kelinning sepini tikish uchun fotixa to‘yidan so‘ng parchapichar (kiyim bichar) marosimi bo‘lib o‘tadi va unga har ikki tomondan kelgan yoshi ulug‘ va hurmatli ayollar ishtirok etadi. Yuqorida ta‘kidlanganidek marosimda faqatgina kelinning oq ko‘ylagi bichilib tikiladi, qolgan ko‘ylaklar esa kelinning mohir tikuvchi qarindoshlari orasida bo‘lib olinadi yoki chevarga beriladi⁷.

Oq ko‘ylakning bichimi har doim boshqa ko‘ylaklarnikidan biroz farq qilgan, shunga qaramay uning umumiy tashqi ko‘rinichi ba‘zi elementlari, masalan, yoqa yoki yeng uchlari bilan farq qilmasa respublikaning barcha hududlarida deyarli tunika shaklda bo‘lgan. Masalan, Samarqandda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida kelinning oq ko‘ylagi yoqasi bo‘ynidan beliga qadar vertikal kesikka ega bo‘lib, bunday ko‘ylaklar xalq orasida “kurtai peshkusho”, yani “old tomondan oqchiq deb nomlangan. Vertikal kesikning ikki tomonidan yelkaga qarab 6-8 sm gorizontal kesilgan va matoning ortiqcha qismlari mato uchlarida zich qilib(chim-chim) yig‘ilgan. Ko‘ylakda yoqa bo‘lmay uning o‘rniga farovez (podpolok) deb nomlangan mato bilan ichkaridan tikilib mustahkamlangan, vertikal kesikning o‘rtasida tugma bilan qadalgan yoki uchi munchoq va iplardan qilingan popuklar(pupakcha) bilan bog‘langan. Aynan kelinlar ko‘ylaklarida peshkusho yoqaning qo‘llanishi nafaqat amaliy , balki sehrli ma‘no ham kasb etgan. Uning “ochiqligi” taqdirning “ochiqligi” baxt va bolalarning oson tug‘ilishini ham anglatar edi. Shuning uchun xalq orasida “ nikoh kechasi qizga oldi ochiq ko‘ylak kiydirilishi lozim, bu unga uning barcha yo‘llari “ochiq ekanidan dalolatdir” deyilgan. Ko‘ylakning oq rangi ham albatta baxtli va yorqin hayot nishonasi hisoblangan⁸(2 rasn) .



⁶ Салимов Т.Ў. Этнографик экспедицияларни ўтказиш услублари Ташкент : "Университет", 1993 –С. 47

⁷ Этнографические очерки узбекского сельского населения. Москва, 1969. –С. 228

⁸ Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма Самарканда (2-я половина XIX - начало XX в.). М., 1982 -С. 36-50

2-rasm. Kurtai-peshkushoning umumiy ko‘rinishi va bichimi.

1920-yillardagi hujum harakati, shuningdek sovet mahsulotlarining bozorlarga jadal kirib kelishi, mahalliy aholining kundalik hayoti, xususan kiyimlariga ham katta ta‘sir o‘tkazdi. Shu sababli 1930-40 yillardan boshlab aholining o‘ziga to‘q yuqori qatamlari orasiga yevropa va yarim yevropa uslubidagi kiyimlar va kiyim bichimlari jadal ravishda kirib kela boshladi⁹.

1930-yillardan boshlab dastlab Toshkent shahrida, keyinchalik esa boshqa hududlarda ham ayollar liboslarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatila boshladi. Xususan, to‘y va kundalik ko‘ylaklar bichimida yangicha uslub – ko‘krak qismi burmali shaklda ishlangan bichim-uslubning ommalashuvi yuz berdi. Mazkur ko‘ylak turi qisqa vaqt ichida ayollar va qizlar orasida keng tarqaldi. Uning bichim xususiyatlariga e‘tibor qaratilsa, yuqori — koketka qismi gavdaga mos qilib tikilganbo‘ladi, pastki qismi kengaytirilgan holda serburma qilib ulanadi. Ushbu ko‘ylakning umumiy tuzilishi ham to‘g‘ri tunika shaklda bo‘lib, o‘tirib turish va harakat qulayligini ta‘minlagan¹⁰. Shuningdek, ushbu bichim funksional jihatdan ham qulay hisoblanadi: u gavdada yaxshi o‘tiradi, tanani siqmaydi va havo aylanishiga imkon beradi. Shu sababli, bu turdagi ko‘ylaklar uzoq vaqt davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Hozirgi kunda ham uning elementlari zamonaviy talqinlarda uchrab, ayniqsa kelinlarning kundalik liboslarida faol qo‘llanilmoqda. Bu esa mazkur bichimning nafaqat tarixiy, balki amaliy va estetik jihatdan ham barqaror qadriyatga ega ekanligini ko‘rsatadi(3-rasm).



3-rasm. Ko‘krak burma ko‘ylak tuzilishi.

Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz va Kitob tumanlari qishloqlarida kelinlik liboslari bilan bog‘liq urf-odatlar o‘ziga xos ramziy va marosimiy mazmunga ega. Xususan, kelinning birinchi kecha uchun mo‘ljallangan oq ko‘ylagi mahalliy terminologiyada “oqlik” deb yuritiladi. Mazkur libos uchun ishlatiladigan mato odatda kuyov tomoni tomonidan Fotixa to‘yida boshqa qimmatbaho matolar — atlas, adras, kimxob va ipaklar bilan bir qatorda yuborilgan. Tarixiy


⁹ Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма Самарканда (2-я половина XIX - начало XX в.). М., 1982 -С. 24

¹⁰ Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.:Янги аср авлоди,2006. –С.70

manbalarga ko‘ra, XX asr boshlarida bu hududlarda bo‘z va muslin matolari keng qo‘llanilgan. XIX asr oxirlariga kelib, kiyim bichish jarayonida matolarni qo‘lda yirtish amaliyoti ustun bo‘lib, tig‘li asboblari — qaychi yoki pichoqdan foydalanish ma‘qullanmagan¹¹. Bu bilan bog‘liq e‘tiqodlarga ko‘ra, tig‘li buyumlar yoshlarning baxtiga “zarar yetkazadi” yoki kiyim qaychi bilan kesilsa, uning egasining kelgusi hayoti ham “kesiladi”, degan qarashlar mavjud bo‘lgan¹². Biroq XX asr o‘rtalaridan boshlab bu an‘anaviy qarashlar asta-sekin o‘zgarib, bichishda qaychidan foydalanish keng yoyila boshlagan.

Hududiy an‘analarga ko‘ra, ayollar kiyimlari yosh va ijtimoiy maqomga qarab turlicha nomlangan. Masalan, Shahrisabz tumani Soybo‘yi qishlog‘ida kelinlar ko‘ylagi “par-par” deb atalgan¹³(4-rasm). Bu ko‘ylakning bichimi sodda, to‘g‘ri shaklda bo‘lib, yenglari keng va to‘g‘ri tikilgan, yoqasi esa tik — bog‘ma yoqa ko‘rinishida bo‘lgan. Yoqaning chetlari alohida jiyak bilan bezatilgan. E‘tiborlisi, bu kiyimlarda yeng va etak uchlari qaytarilmagan hamda tikishda ishlatilgan iplarning uchi tugilmagan¹⁴. Bu holat ham ramziy ma‘noga ega bo‘lib, qaytarilgan etak kelinning baxti ortga qaytishini, tugilgan ip esa baxtning “bog‘lanib qolishi”ni anglatadi, degan qarashlar mavjud bo‘lgan. Hozirgi kunda bunday an‘anaviy tikuv usullari deyarli iste‘moldan chiqib ketgan.

1970-yillarga kelib oq ko‘ylaklar bichimi asosan o‘zining to‘g‘ri shaklini saqlab qolgan holda, yoqa qismida yangi bezak elementlari paydo bo‘la boshladi. Xususan, yoqa atrofiga qo‘shimcha burmali (par-par) matolar tikilib, ular “po‘pak yoqa” yoki “it yoqa” nomlari bilan atalgan. Bunday yoqalar murakkab ishlanishi bilan ajralib turib, mato chetlari qatma-qat buklab tikilishi natijasida tishsimon shakl hosil qilgan. Ushbu ko‘ylaklar asosan ipak, muslin, oq bo‘z yoki surp matolardan tikilgan¹⁵.



4-rasm. Par-par ko‘ylak

O‘zbekistonning janubiy hududlarida kelinlarning ikki yoki uch qatlamli ko‘ylak kiyishi odatiy hol bo‘lgan. Ichki qatlam oq ko‘ylakdan iborat bo‘lsa, uning ustidan “kashta ko‘ylak” yoki “katta ko‘ylak” kiyilgan. Bu ko‘ylaklar yoqasidan etagigacha geometrik va o‘simliksimon naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib, yeng va etak qismlarida ham kashtalar davom ettirilgan. Ko‘ylak bichimi keng va to‘g‘ri bo‘lib, old yoqasi biroz ochiq, orqa qismi esa tik shaklda

¹¹ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Ташкент 2007 –С. 180

¹² Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. -Т.: Янги аср авлоди, 2006. –С. 139

¹³ Шаниязов К. Ш. Исмаилов Х. И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конец XIX начало XX в. Ташкент «Фан» 1981 –С. 100

¹⁴ Yo‘ldosheva S., Davlatova S., Sattorova G. Folklor kiyimlari va bezaklari –Toshkent: Talqin, 2007. –B. 62

¹⁵ Yo‘ldosheva S., Davlatova S., Sattorova G. Folklor kiyimlari va bezaklari –Toshkent: Talqin, 2007. –B.90

tikilgan¹⁶. Dastlab bunday liboslar uchun shoyi matolar ishlatilgan bo'lsa, 1980-yillardan boshlab parcha matolar ham keng qo'llanila boshlagan. Ranglar asosan to'q qizil va unga yaqin turlarda bo'lib, ular baxt, farovonlik va muhabbat timsoli sifatida talqin etilgan. Bugungi kunda mazkur an'anaviy liboslar tarkibiy jihatdan o'zgarib bormoqda, ammo ular zamonaviy kelin garderobida ma'lum darajada saqlanib qolmoqda (5-rasm).



a) 1980-90 yillarga xos kelinlar “kashta ko'ylagi”
b) XXI asrning 20-yillariga xos “katta ko'ylak”

Sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan respublika bozorlarida mato ta'minoti va assortimenti sezilarli darajada o'zgardi. Xususan, Rossiyadan olib kirilgan fabrika matolarining keng tarqalishi mahalliy to'qimachilik mahsulotlari bilan bir qatorda yangi turdagi materiallarning ommalashuviga zamin yaratdi. Bu jarayon ayollar, ayniqsa kelinlik liboslari tarkibi va bichimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur davrda ijtimoiy tabaqalanish kiyim tanlashda ham aks etib, badavlat qatlam vakillari ipak va kambrikan tikilgan oq to'y ko'ylaklarini afzal ko'rgan bo'lsa, kam ta'minlangan aholi vakillari paxtalik matolardan foydalanishda davom etgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, jumladan mato tanqisligi, to'y marosimlari liboslarida soddalashuv jarayonini kuchaytirdi. Natijada, qo'lda tayyorlangan oq paxtalik matolardan tikilgan ko'ylaklar keng qo'llanila boshladi. Shu bilan birga, ushbu davrda Toshkent uslubidagi ko'ylaklarda tik yoqa elementining keng tarqalishi kuzatilib, u turli turdagi ayollar liboslarida barqaror shakllangan konstruktiv unsurga aylandi.

1950-yillardan boshlab Toshkent bozorlarida atlas matolarining yangi rang turlari paydo bo'lib, keyinchalik 1970–1980-yillarga kelib ular respublikaning boshqa hududlarida ham ommalashdi. Ranglar uyg'unligining xilma-xilligi (qizil-qora, oq-qora, ko'k-qora) va ularning

¹⁶ Шаниязов К. Ш. Исмаилов Х. И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конец XIX начало XX в. Ташкент «Фан» 1981 –С. 100-105

yuqori narxi ushbu matolarning asosan to‘y liboslari uchun ishlatilishiga sabab bo‘ldi (6-rasm). Bu davrda ko‘krak qismi burmali ko‘ylaklar nafaqat kelinlar libosida, balki kundalik ayollar kiyimida ham keng tarqaldi. Shuningdek, 1950-yillardan krepdeshin matosining kirib kelishi kelinlik liboslari modasida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mazkur mato tez orada ommalashib, kelinlar orasida keng qo‘llanila boshlandi, atlas ko‘ylaklar esa asta-sekin kundalik kiyim sifatida qaror topdi. 1970-yillardan boshlab esa Toshkent shahrida Yevropa uslubidagi kelinlik liboslari kirib kela boshladi. Xususan, nemis gipyuridan tikilgan oq ko‘ylaklar an’anaviy ko‘p qatlamli liboslar o‘rnini egallab, xalq orasida “fata ko‘ylak” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Keyinchalik ushbu uslub respublikaning boshqa hududlariga ham yoyilib, zamonaviy kelinlik modasining muhim tarkibiy qismiga aylandi¹⁷(7-rasm).



6-rasm. Yangi tushgan kelin libosi. Toshkent. XX asr boshi

¹⁷ Зуннунова Г. Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX-начало XXI в.) Ташкент: “Extremum-Press” 2013. –С. 170-200



7-rasm. XX asr oxirida ommalashgan “fata ko’ylaklar”

Mustaqillikdan keyingi davr, xususan 2000-yillardan boshlab respublikada bozor iqtisodiyotining shakllanishi, savdo aloqalarining kengayishi hamda import-eksport jarayonlarining faollashuvi to‘qimachilik mahsulotlari assortimentining sezilarli darajada boyishiga olib keldi. Shu bilan birga, mahalliy fabrikalarda mato ishlab chiqarish hajmining ortishi ham ichki bozorda turli xil sifat va tarkibga ega materiallarning paydo bo‘lishini ta’minladi. Natijada kelinlik liboslari uchun tanlanadigan matolar xilma-xilligi kengaydi. An’anaviy atlas, adras va shoyi matolar o‘z mavqeini saqlab qolgan bo‘lsa-da, ular qatorida “qor malikasi”, “gavyota”, “linda”, “sitora” kabi zamonaviy matolar hamda Buxoro zardo‘zlik an’analari asosida ishlangan bezakli matolar keng qo‘llanila boshladi. Shuningdek chevarchilikning yanada rivojlanishi liboslar bichimida turli shakl va uslublarni olib keldi. Shuningdek bozorlarda endilikda fabrika va tekstillarda ishlab chiqarilgan tayyor kelin ko‘ylarining savdosi ham yanada rivojlandi(8-rasm).



8-rasm. XX asr oxirida kelinlarning kundalik ko‘ylaklari(ko‘krak burma uslubida).

2010-yillardan e‘tiboran oq kelinlik ko‘ylaklar uchun sun‘iy tolalardan tayyorlangan, xalq orasida “lazer” nomi bilan tanilgan matolar ommalashdi. Ushbu materialning yaltiroq va silliq tuzilishi uni nafaqat asosiy ko‘ylak, balki boshqa liboslarning ichki qismi sifatida ham qo‘llash imkonini berdi. Mazkur davrda kelinlik liboslari bichimi va yoqa shakllarida qat‘iy an‘anaviy me‘yorlarning susaygani kuzatilib, individual did, moda tendensiyalari va chevarlarning ijodiy yondashuvi ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. 2015-yillardan boshlab “pombah” matosining keng qo‘llanilishi kelinlik oq ko‘ylaklarning funksional o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Avval ichki qatlam sifatida kiyilgan oq ko‘ylak endilikda mustaqil libosga aylanishi bilan uning ijtimoiy va estetik vazifasi kengaydi. Mazkur matolarning mavsumiy — qalin va yupqa turlari mavjud bo‘lib, ular iqlim sharoiti va iste‘molchilarning ehtiyojiga mos ravishda tanlanadi(9-rasm).

Toshkent bozordalarida kelinlar ko‘ylaklarining 100 lab xillarini uchratish mumkin. Iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi libos turi va shaklini yanada kengaytirdi. Turli atlas va adras ansambillar, qimmatbaho to‘y oldi va to‘ydan keyin kiyiluvchi bazm liboslari, shuningdek kundalik va ko‘chalik kiyimlarning tanlov imkoniyati XX-asrga nisbatan bugungi kunda bir necha barobar yaxshilangan. Viloyat hududlarida esa tikuvchi-chevarlarning roli hanuz yuqori baholanadi. Kelinlik liboslarini individual buyurtma asosida, kelinning didi, gavda tuzilishi va oilaviy an‘analarini hisobga olgan holda tikish amaliyoti keng saqlanib qolgan. Bu esa liboslarning nafaqat estetik, balki ramziy ahamiyatini ham mustahkamlaydi(9-rasm).

So‘nggi yillarda, ayniqsa 2020-yillardan boshlab, kelinlik liboslarida global moda tendensiyalarining ta‘siri yanada kuchaygani kuzatilmoqda. Minimalistik dizaynlar, yevropacha siluetlar, shaffof matolar (fatin, organza), uch o‘lchamli (3D) kashtalar va qo‘l mehnati bilan ishlangan aplikatsiyalar keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, oq rang bilan bir qatorda sutrang (ivory), shampän, pastel tuslar ham kelinlar orasida ommalashib bormoqda.

Ba’zi hollarda milliy va zamonaviy uslublar sintezi asosida yaratilgan liboslar — masalan, atlas yoki adras elementlari qo’shilgan yevropacha fasonlar ham uchramoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kelinlik liboslari tanloviga ham ta’sir ko’rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn kataloglar va dizaynerlar sahifalari orqali kelinlar o’zlari uchun mos modelni oldindan tanlab, chevarlarga buyurtma berish imkoniyatiga ega bo’lmoqda. Shu bilan birga, yirik shaharlarda tayyor kelinlik liboslarini ijaraga berish tizimi ham rivojlanib, iste’mol madaniyatida yangi yo’nalishlarni shakllantirmoqda. Umuman olganda, zamonaviy davrda kelinlik liboslari an’anaviylik va modernlik o’rtasidagi uyg’unlik asosida rivojlanib, bir tomondan milliy identitetni saqlab qolsa, ikkinchi tomondan global moda jarayonlariga moslashib bormoqda. Demak bundan ko’rinadiki kelin liboslaridagi o’zgarishlar dinamiik bo’lib zamon va makonga qarab, madaniyat va yangiliklarga moslashib o’zgarib bormoqda. Shuningdek ularda milliylikni saqlab qolish va yanada targ’ib etish choralari ko’rilmogda. Bu esa o’z navbatida jahon modasida o’zbek kelin obrazini shakllantirishga ham yordam bermogda (10-rasm).





9-rasm. XXI-asrning 20-yillarida kelinlarning an'anaviy “oqlik” ko'ylaklari. Turli xil bichim va uslublarda.







10-rasmlar. 2000-2025-yillar oralig'idagi kelin ko'ylaklari.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Ташкент 2007 –С. 190
2. Салимов Т.Ў. Этнографик экспедицияларни ўтказиш услублари Ташкент : "Университет", 1993 –С. 47
3. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма Самарканда (2-я половина XIX - начало XX в.). М., 1982 -С.24, 36-50
4. Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.:Янги аср авлоди,2006. –С.70, 139
5. Этнографические очерки узбекского сельского населения. Москва, 1969. –С. 236-285
6. Зуннунова Г. Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX-начало XXI в.) Ташкент: “Extremum-Press” 2013. –С. 150-200
7. Шаниязов К. Ш. Исмаилов Х. И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конец XIX начало XX в. Ташкент «Фан» 1981 –С. 85, 100-105
8. Yo'ldosheva S., Davlatova S., Sattorova G. Folklor kiyimlari va bezaklari –Toshkent: Talqin, 2007. –В. 62, 90
9. https://www.instagram.com/kelinchak_fasonlar2024?igsh=cHV6cHpmbndkeDdo
10. <https://www.instagram.com/p/DXjrOk0DWMM/?igsh=MXpkaHo1eTdwajU1>
11. <https://www.instagram.com/reel/DXCeh1aDDLv/?igsh=MWlzbHhia2ZrMnVlbg==>